

**Aviatsiya musobaqalari doirasidagi “Raketa modelashtirish”
musobaqasini o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

Ushbu Nizom raketa modellash tirish bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqaning tartibi, ishtirok etish shartlari hamda baholash jarayonlarini belgilaydi.

2. Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar

- 2.1. Musobaqada qatnashuvchilarning yoshi 17 yoshdan kichik bo‘lmasligi va 30 yoshdan oshmasligi shart.
- 2.2. Ishtirokchilar musobaqada guruh shaklida qatnashadilar.
- 2.3. Har bir guruh 2 nafar ishtirokchidan iborat bo‘lishi kerak.

3. Raketa modeli va hujjatlar

- 3.1. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etiladigan raketa modeli quyidagi hujjatlar bilan birga topshirilishi lozim:
 - ishchi chizma;
 - modelning murakkablik darajasi;
 - modelning hozirgi kunda qo‘llanilish yo‘nalishi va ahamiyati.
- 3.2. Taqdim etilgan hujjatlar to‘liq va aniq rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart.

4. Uchirish moslamasi (motor) talablari

- 4.1. Ishtirokchilar raketa modelini uchirishda foydalaniladigan uchirish moslamasi (motor) haqida to‘liq ma‘lumot taqdim etishlari kerak.
- 4.2. Raketa modelini uchirishga faqat hakamlar hay‘atining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

5. Texnik jihozlar

- 5.1. Ishtirokchilar raketa modelini uchirish uchun zarur bo‘lgan barcha texnik jihozlarga mustaqil ravishda ega bo‘lishlari shart.

6. Musobaqaning tartibi

- 6.1. Musobaqada ishtirokchilar o‘zlari yasagan raketa modellarini hakamlar hay‘atiga topshiradilar.
- 6.2. Kun yakuniga qadar modellar baholanadi.
- 6.3. Baholash yakunlangach, ishtirokchilar modellarini qaytarib olib, keyingi bosqichga tayyorlashlari mumkin.

7. Uchirish jarayoni

7.1. Raketa modelini uchirishdan oldin ishtirokchilar hakamlar oldiga kelgan holda:

- modelning uchish siklogrammasini;
- uchish jarayonida bajariladigan vazifalarni tushuntirib berishlari shart.

8. Uchishdan keyingi tekshiruv

8.1. Raketa modeli uchib qaytib tushgandan so'ng, hakamlar tomonidan tanlab olingan modellar tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin.

8.2. Agar model tekshiruvga chaqirilsa, ishtirokchi musobaqa to'liq yakunlanguniga qadar modelni saqlagan holda hakamlar hay'atiga taqdim etishi shart.

9. Baholash mezonlari

Mezon	Ball
Modelning ishlashi va uchish sifati	40
Hujjatlar to'liqligi va aniqligi	20
Uchish jarayonini tushuntirish	20
Texnik jihozlar va xavfsizlik	20
Jami:	100

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o'zgartirilishi mumkin. O'z o'rnida yangilangan nizom barcha ro'yhatdan o'tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi*